

ISKANDAR PODSHO QISSASI HAQIDA

Xudayberdiyeva Shahnoza Ergashboyevna

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti magistranti

e-mail: xudayberdiyevashaxnoza5@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola “Iskandar podsho qissasi”, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tekshirish instituti, asosiy fondida saqlanayotgan, besh nusxali, tosh bosma asardir. Mazkur asarni 1913 -yil Mir Azam Mir Sulton tomonidan eski o'zbek yozuvida, o'zbek tiliga tarjima qilingan. Asarning umumiy hajmi 516 betdan iborat bo'lib, asar avvalida «Darob» haqidagi bir hikoya bilan boshlanadi. Hikoyadan keyingi voqealar mavzulashtirilgan bo'lib, har bir hikoyani tartib bilan doston deb nomlab keltirilgan. Mazkur asar nomlanmagan bir hikoyadan tashqari, 97 ta dostondan iborat.*

Kalit so'zlar: Iskandar, Muhammad s.a.v, Xizr a.s, Xamsa, Aleksandr Makedonskiy, Zulqarnayn, Jamshid shoh, Qur'oni karim, Darob, Taxomus,

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ta’lim tizimining bosh maqsadi mustaqil fikrlaydigan avlodni shiddat bilan o’zgarayotgan global dunyoda yashab ketishga tayyorlash, ularni boshqa mamlakatlardagi tengqurlariga nisbatan raqobatbardosh qilish va shu orqali millatning ravnaqni ta’minlashdir. Yoshlari kasbsiz, mahorat va malakasiz, mustaqil fikrlamaydigan, o’rganishni o’rganmagan millatlar zaiflashib, boshqa millatlarga yem bo’lishini tarix ming bir marta isbotlab bergen. Shunday ekan, hozir bizga ta’limning yangi islohoti kerak,” [1] – degan so’zlari ta’limga, qolaversa, adabiy merosimizga yangicha yondashuvning paydo bo’lganligi, diqqat-e’tiborning ortganligi va milliy o’zligimizni anglash davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligidan dalolat beradi.

Adabiyotni tushunish va anglash muayyan badiiy bir asarni o’ziga xos xususiyatlarini idrok etishdan, unda ilgari surilgan fikr, g’oya va tuyg’uni, obraz va xarakterlarni, sujet va konfliktni badiiy til orqali qabul qilishdan boshlanadi. Har qanday asar kitob holiga kelib shakllanguncha ijodkorning dunyo qarashida, tafakkurida, ijod jarayonida, murakkab va ko‘p qirrali taraqqiyot bosqichlaridan o’tadi. Muayyan badiiy asarning mavzu, g’oya, janr va qahramonlarini tanlashda yozuvchi tarixiy sharoit, zamon talabi, davr ehtiyoji, adabiyot va tarixni umumiy ahvoli va boshqa omillar ham ta’sir ko’rsatadi. Bu qonuniyat har bir adabiy davr uchun xosdir. Barcha badiiy shakl unsurlari kabi adabiy tur va janrlar ham asar mazmunini chuqurroq ochish, to’liqroq ifodalash vositasidir. Ijodkorning u yoki bu adabiy tur va janrlarni

tanlashi ko'p jihatdan uning maqsadi, qobiliyati, mahorati va iste'dodining o'ziga xos tomonlariga ham bog'liq ekanligini unutmaslik lozim.

Sharq mumtoz adabiyotida buyuk shaxslarga bag'ishlangan asarlar, ularni madh etuvchi qasidalar adabiy merosimizni juda katta qismini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda tarixiy shaxslarning nomlari ostida asarlar yozish ham mumtoz adabiyotimizda urf bo'lgan edi. Ana shunday ismlardan biri shubhasiz «Iskandar» nomidir. Iskandar deganda har bir o'quvchi ko'z oldiga Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi «Iskandar» kelmog'i tabiiy. Agar ushbu obrazni kengroq tasavvur qilsa, xamsanavislар va ularning o'z orzularidagi adolatpesha, xalqparvar, dono shoh timsollari bo'lmish Iskandar obrazi tafakkurlarida jonlanadi. Ta'kid bo'lsa-da, barchamizga yaxshi ma'lumki, dunyoda ikki Iskandar o'tgan bo'lib, ularning biri "Qur'oni karim" da keltirilgan Zulqarnayn bo'lsa, ikkinchisi Yunon sarkardasi makedoniyalik Iskandardir. Adiblar o'z asarlarida keltirgan Iskandarlar yuqoridagi iskandarlarning qaysi biri ekani to'g'risida ko'plab bahs munozaralar borligi aniq. Bizning mulohazamiz bu borada emas, balki ushbu nom ostida yaratilgan yana bir asar xususidadir.

"Iskandar podsho qissasi", Beruniy nomidagi Sharqshunosik ilmiy tekshirish instituti, asosiy fondida saqlanayotgan, besh nusxali, tosh bosma asardir. Mazkur asarni 1913 -yil Mir Azam Mir Sulton tomonidan eski o'zbek yozuvida, o'zbek tiliga tarjima qilingan. Asarning umumiyligi hajmi 516 betdan iborat bo'lib, asar avvalida «Darob» haqidagi bir hikoya bilan boshlanadi. Hikoyadan keyingi voqealar mavzulashtirilgan bo'lib, har bir hikoyani tartib bilan doston deb nomlab keltirilgan. Har bir doston avvalida, "Roviylar debdurlarkim" jumlasining kelish asarni xalq og'zaki ijodiga juda yaqin ekanini ko'rsatadi. Mazkur asar nomlanmagan bir hikoyadan tashqari, 97 ta dostonidan iborat. Doston nomlarining deyarli barchasi Iskandar olib borgan janglar, ushbu janglarga tayyorgarlik, jangdan keyingi holatlar va oqibatlari bilan atalgan. Asarda har bir tasvir qiziqarli bayon qilingan bo'lib, tasvirlarda, uchuvchi devlar, afsun qilib qiyofasini o'zgartiruvchi obrazlar, duo o'qib nimaiki xohishi bo'lsa amalga oshiradigan qahramonlar, yoinki raqibini bir zarbada ikki palla qiladigan bahodirlar talaygina bo'lib, yuqorida sanaganlarimiz, hayotda sodir bo'ladigan real voqealar emas, balki xalqning orzu-umidlari jamlangan qahramonlik dostonlariga o'xshaydi.

Doston- xalq og'zaki ijodining eng yirik janri bo'lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega bo'lgan voqealarni bayon qiluvchi asar. Doston, poema liro- epik janr. Bu janr barcha xalqlar adabiyotida keng tarqalgan. Dostonda muayyan voqealari liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko'lamda olinadi, bir yoki ikki bosh-

qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko‘p bo‘ladi. Dostonlarda turli afsonalar, asotirlar hikoyalar, dev, parilar, xizr, ajdar, ajabtovur otlar, sehr-jodu ko‘p ishtirok etadi. (2) Yuqorida doston haqida keltirgan ma'lumotimizda aytilganidek, personajlarni ko‘p bo‘lishi, hayot voqealarini keng ko‘lamda olinishi kabi unsurlar mavjudligi ham tadqiqot obyektimizni, qissa deb nomlangan bo‘lsada, doston ekanini asoslaydi.

Jahon mumtoz

adabiyotidagi dostonlar keng qamrovligi va hajmining kattaligi, yuzaga chiqqan ijtimoiy, siyosiy axloqiy muammolar, syujetning sertarmoqligi va dramatizimning o‘tkirligi, personajlarning ko‘pligi bilan ajraladi. (3) Personajlarni ko‘pligi haqida yuqorida aytib o‘tdik, undan tashqari ham ushbu asarni aynan dostonga o‘xshash jihatlari talaygina. Ya’ni, hajmni kattaligi, ko‘tarib chiqilayotgan muammolar, syujetning sertarmoqligi ham hamma hammasi asarni aynan doston ekanini bildiradi. Balki, shu sababdan ham asarga “Iskandar podsho qissasi” deb nom berilsada, asar ichidagi boblarni, doston deb nomlangan. Shu o‘rinda qissa haqida ham to‘xtalib o‘tsak: Qissa-badiiy adabiyotda epik janr turlaridan biri. G‘arbiy yevropa va Amerika adabiyotida povest ma’nosidagi qissa tushunchasi yo‘q. Nasrning romandan boshqa barcha janrlari “novella” termini orqali ifodalanadi. Rus va sharq adabiyotida qissaning hozirgi va qadimgi ma’nolari o‘rtasida farq bor. Masalan, rus adabiyotida har qanday nasriy asar povest (qissa) deb atalgan. Sharq adabiyot tarixida rivoyat usulida nasr yoki nazmda yozilgan tarixiy-afsonaviy asarlar qissa deb yuritilgan. (4) Demak, qissa deganda biz hozirdagi ma’nosи, qissa, odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o‘zida asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, va mazmuning nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissalar hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda voqelik ko‘lamini romanga qaraganda kamroq qamrab oladi – degan qoidani emas, balki qadimda bajargan vazifasini tushunishimiz kerak.

Bizga yaxshi ma'lumki, Iskandar haqidagi barcha adabiy asarlarda, Iskandaradolatli shoh, dono hukmdor sifatida ta’riflangan. Ushbu asarda ham Iskandar obrazi ijobiy obraz bo‘lib, voqealar davomida uning ijobiy fazilatlari ulug‘lanadi, dono-yu donishmandligi ko‘rsatiladi. Aynan shu kabi ijobiy fazilatlarining takror va takror kelishi, Iskandar haqidagi boshqa asarlarni eslatsada, bu Iskandarni badjahlligi, ayyorona xylalarga ko‘p izn berishi, rahm-shafqat borasida ham boshqa Iskandarlardan farqli ekanini ko‘rsatadi. Asarning syujeti sertarmoq bo‘lib, sodir bo‘layodgan voqea tugamay, boshqa voqea boshlanib, boshlangan ikkinchi voqeaning o‘zi bir qancha alohida-alohida voqealardan iboratdir. Asar Iskandarni davlat tepasiga kelishi va bunga yon atrofdagi shohlarni munosabati kabi uzluksiz voqea bilan boshlanadi. Iskandar

hukmdor bo'lishi bilan yon atrofga, nomi yoyila boshlaydi. Uning taxt tepasiga kelganidan norozi hukmdorlar Iskandarning ustiga qo'shin tortib keladi. Bulardan biri Marun isimli hukmdor bo'lib Iskandar ustiga qo'shin bilan bostirib boradi, ammo Iskandardan yengilib, vazirlar bilan maslahat qiladi. Shunda vazirlaridan biri aytdiki. "Sayxun tog'i karonasida Aflatun nomlig' hakim bordir, haddan ziyod donishmand kimsadir, ushbu tariqa voqealarni maslahat birlan hal qilur dedi. Aning so'zi Marunga maqul bo'lib, andog' bo'lsa boringlar deb, haddan ziyod tuhfalar bilan vazirlarini aning xuzuriga yubordi. Vaqtiki, ular borib, Aflatunga salom berib, voqeani aytdilar. Aflatun aytdiki, nomi nadur? Vazir aytdi. Iskandar deb atar emishlar. Hakim so'rdi. Qayondan hujum qildi?

Vazir aytdi -Rumdan. Hakim so'rdi -Otasining tayini bormishmi? Vazir aytdi -Bilmasmiz. Hakim aytdi - andog' bo'lsa, o'sha odam podsho bo'larkan, podsholarni o'zi itoat qilguvchi va ko'p yil umr ko'rguvchi, hamma yer yuzini egallab olguvchi va anga dushmanlik andishasi bo'lgan bilan maqobil bo'lsa ani yiqitguvchi bo'lur, alhosil podshohingizga aytinglarkim, qancha g'ayrati bo'lsa, anga itoat qilib, ne tilasa qabul qilsin. Mundin o'zga chora yo'qdur dedi." (5) Asar shu tariqa biri ikkinchisini ergashtirib keluvchi voqealar oqimi bilan boshlanib, obrazlar ko'payishi bilan syujet ham kengayib boradi. Asar tarixiy, to'qima va mifologik obrazlar bilan juda boyitilgan. ana shunday tarixiy obrazlardan biri bu Aflatundur. Barchamizga yaxshi ma'lumki, Aflatun Yunon donishmandlaridan biri bo'lib, asarlarda donishmand, faylasuf, bashoratgo'y sifatida ko'p keltiriladi. Aflatun asarning boshida ya'ni yuqoridagi misolda va asarning oxirida kelgan. Asarning 90 dostonida Yunon hukumdori deb keltirilgan. Asarda hech bir voqeа to'satdan sodir bo'lmaydi, avvaldan qahramonning tushiga kiradi yoki o'quvchiga kutilmaganda sodir bo'lgandek tuyulsada, asar qahramon jonini xatarga qo'yib borib uchrashgan obraz, uni uzoq yillardan buyon kutayotgan bo'ladi, yoki yuqoridagidek, kimdir tomonidan avvaldan bashorat qilinadi. Aynan shu jihat bilan dostonlarga o'xshaydi. Bunga jahon adabiyotida ham o'zbek adabiyotida ham bir qancha misollar bor. Asarda badiiy san'atlarga keng o'rin berilgan bo'lib, qahramonlarni tasvirlashda o'xshatish, malikalar tasvirida husni ta'lil, jang sahnalarini tasvirida mubolag'a san'atidan unumli foydalanilgan. Mubolag'a san'ati, mubolag'a tablig', ig'roq, g'uluv deb atalgan uch turga bo'linadi. Tablig'- aql ishonishi mumkin bo'lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lgan mubolag'adir. Mubolag'aning ikkinchi darajasi ig'roq deb ataladi. Ig'roq belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo'lsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo'lman tarzda kuchaytirib tasvirlash demakdir. Mubolag'ani uchinchi darajasi g'uluvv deb ataladi. Aql ham bovar

qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmaydigan tarzda tasvitlashdir.(6) Asarning katta qismni jang sahnalari tashkil etadi. Mubolag'ning aynan ana shu jang sahnalarida, bir necha turini ko'rishimiz mumkin. Misol: "Taxomusning pahlavonlaridan biri chiqib, Malik Iskandarga qarab, ey Iskandar, qani mard bo'lsang chiq buyoqqa yoki mening haybatimdan qo'rqib, qochib ketdingmi deb nara tortgan erdi, bu so'zdan Malik Iskandar g'azabga kelib, otlariga maqobil bo'lib, qo'llariga shamshirlarini olib, raqiblarini bir urgan erdilar, Taxomusning bahodiri oti birlan ikki palla bo'ldi. . Buni ko'rib Taxomus ichra qadam qo'ydi. Malik Iskandar dillarida aytilarkim, Taxomus ushbu husni jamol birlan nobud bo'lar deb. Taxomusg'a aytilarkim, ey Taxomus sening mardliging uchun kelgan lashkarlaringni asir olib, qul qilurman. Endi mani malak qil, yo'qsa sani tojingni taroj qilib, boshingni olurman dedilar. Unga javoban Taxomus ayttikim, mening mardligim uchun kelgan lashkarlarni nobud qilar bo'lsang, man sani alar uchun joningni olurman. Mening bir jonim bor, agar ming jonim bo'lsa ham dinim uchun berurman dedi. Alqissa, ikki tomon ham nayzalar birlan jang qildi. Nayzalar sinib boshqasiga almashtirdilarkim, ul ham sing'ach, ikkisi ham shamshirlarini oldilar. Malik Iskandar zarb bilan shamshirni Taxomusni boshiga chunon urdilarkim, agar bu zarb toshga tushkanida tosh ikki palla bo'lurdi. Taxomus behush bo'lgandek karaxt bo'lib, maydondan qocha boshladi...".(7) Parchada Iskandarning bir zarbi ikki o'rinda keltirilgan bo'lib, birinchi zARBIDA raqibi oti birlan ikki palla bo'lgan, ya'ni mubolag'a g'uluvv, aql bovar qilmaydigan, hayotda ham sodir bo'lishi mumkin bo'lмаган tasvirdir. Ikkinchisi ham birinchisi kabi berildi, ammo u raqibni ikki palla qilmadi, aynan shu ikkinchi zARBGA nisbatan shunday deyilgan. "Agar shu zarba toshga tushganda, toshni ikki palla qilar", birinchi zarba raqibni o'ziga qo'shib ostidagi otini ham ikki palla qilgan edi, ikkinchi zarba esa raqibin karaxt qildi xolos. Bu mubolag'a tablig', aql ishonishi mumkin, hayotda ham sodir bo'lishi mumkin holatdir.

Asarda mifolagik obrazlarga keng o'rin berilgan bo'lib, ular ikki xil ko'rinishda ijobiy va salbiy obrazlarda namoyon bo'ladilar. Salbiy holatda ular ko'proq Iskandarning raqiblariga yordamga kelar va Iskandar lashkarlariga qarshi jangga chiqar edilar. Ijobiy holatda esa, faqatgina Iskandar qo'lga kiritishi va uning sirlaridan ogoh bo'lishi, o'rni kelib qolsa undan foydalanishi mumkin bo'lgan turli-tuman tilsimlar bor edi, ana shu tilsimlarni ming yillar davomida Iskandarga yetib kelishi uchun Devlar qo'riqlar va omonatni egasiga topshirishi bilan jon taslim qilardi. Nafaqat miflar balki Xizr a.s. obrazlari ham asar davomida muntazam uchrab, Iskandarga yo'l - yo'riq ko'rsatar, turli jumboqlarni javobi borasida yechim aytadi. Asarning obrazlar tizmi juda xilma

- xil bo'lib, barchasi o'rini keltirilgandir. Ularning barchasi qahramonlar xarakterini ochish, asar mazmunini yoritish uchun xizmat qiladi.

Aşar voqealari sodda tilda bayon qilingan bo'lib, voqealar davomida bir xil so'zlarni va bir xil tasvirlarning takror holatini qayta-qayta ko'ramiz. Iskandar juda ko'p jang olib borgan bo'lib, janglarning boshlanish tasviri hamisha bir xil jumlalar bilan boshlanadi, she'rdagi naqoratdek. Bu kabi tasvirlarni qayta-qayta kelishini, Iskandarning biror muommo qarshisida ilojsiz qolishida, Zahomaning hamisha bir xil ayyorlik qilishida va raqiblar bilan yakkamayakka maydonga tushilganda ularga beriladigan zarbda ko'p uchratamiz. Misol: sodir bo'layotgan voqeа yechimiga kelganda "alqissa", *yuqorida aytdiki*, asar dostonlardan tashkil topgan deb, anashu dostonlarning har birining boshlanishida "roviyalar demishlatki" jumlesi asarda ko'p qo'llanilgan so'zlardandir. Shuningdek, Iskandar mushkul ahvolga tushib qolganda, darhol o'zining xilvat xonasiga kirib tahorat olib, ikki rakat nomoz o'qish lavhasi ham juda ko'p keladi. Asarda bu kabi so'z va holatlarni takrori, asarning qimmatlilik darajasiga putur yetkazsada, asar baribir yaratilgan vaqt va matn jihatidan qimmatlidir.

Asar an'anaviy xotima, Iskandarning o'limi va uni dafn qilish lavhasi, bilan yakunlangan. Biz bilamizki, Iskandarning o'limi dafn qilinishi bilan bog'liq Har xil afsona va rivoyatlar bo'lib shulardan biri, "emishkim Iskandar, mening vafotimdan keyin, tobutdan qo'llarimni chiqarib qo'yinglar, toki el-ulus ko'rsin, butun dunyoni egallab, u dunyoga ikki qo'lim bo'sh ketyapman" degan emish. Aynan shu va shunga o'xshash Iskandarning so'nggi damlarini tasviri boshqa asarlarda turli hikoya, ibratomuz so'zlar va lavhalar bilan berilgan, ammo bu asarda Iskandar hayotining so'nggi lahzalari o'ta tasirli berilmagan. Iskandarning o'limi va uni dafn qilinish bilan asar yakunlanadi. Undan keyin asar haqida yoki boshqa biror bir voqeaga izoh berilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. – 58 b. 6.
2. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish. .
3. Xojiahmedov A Mumtoz badiiyat malohatlari– T.: "Sharq", 1999.
4. Iskandar podsho qissasi toshbosma asar. 1913-yil. Toshkent.
5. Dilmurod Qur'onov, Mashkura Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati – T.: "Akademnashr", 2013
6. Jo'raqulov U, Hamroyev K Qiyosiy adabiyotshunoslik – T.: "IMPRESS MEDIA", 2021.

7. www.ziyonet.uz
8. www.literature.uz